

BIZNES OMBUDSMAN

Makhmatmurodov Aziz Mannob o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti

Yurisprudensiya: Biznes huquqi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Email: mahmatmurodovaziz@gmail.com

Alokulov Javoxir Oblakulovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti

Yurisprudensiya: Biznes huquqi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Email: jalokulov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Biznes Ombudsman institutining biznesmenlar huquqlarini himoya qilishdagi o'rni, vazifalari va vakolatlari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tajriba misolida ushbu institutning tadbirkorlik subyektlarini noqonuniy harakatlardan himoya qilish va Boshqa davlat organlari bilan hamkorligi, O'zbekistondagi mavjud Ombudsmanlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan.

***Kalit so'zlar:** Biznes Ombudsman, tadbirkorlik huquqlari, biznes muhit, davlat organlari, xalqaro tajriba.*

BUSINESS OMBUDSMAN

Makhmatmurodov Aziz Mannob ugli

National University of Uzbekistan

named after Mirzo Ulugbek

Bachelor of Laws (LL.B.)

Business Law Student (3rd year)

Email: mahmatmurodovaziz@gmail.com

Alokulov Javokhir Oblakulovich

National University of Uzbekistan

named after Mirzo Ulugbek

Bachelor of Laws (LL.B.)

Business Law Student (3rd year)

Email: jalokulov@gmail.com

ABSTRACT

In this article, the role, duties and powers of the Business Ombudsman Institute in protecting the rights of businessmen are thoroughly analyzed. The importance of this institution's protection from problems related to business entities and cooperation with other state bodies is highlighted, The role and importance of existing ombudsmen in Uzbekistan is highlighted.

Key words: *Business Ombudsman, business law, business environment, state bodies, international experience.*

KIRISH

Prezident Shavkat Mirziyoyev bundan 7 yil oldin 2017-yilda aytib o‘tganlaridek “Tadbirkor yo‘liga to‘siq bo‘lishni davlat siyosatiga xiyonat qilish demakdir” deb ta’kidlab o‘tganlar va bu so‘zlar bevosita O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish, ularga barcha imkoniyatlarni ta’minlash va milliy iqtisodiyotimizni yanada barqarorlashtirish uchun muhim qadam bo‘lgan deb ayta olaman. Bundan tashqari eng samarali islohotlardan biri qonunchilikdagi bazi normalar ham yangilandi, qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi ayniqsa ularning xarakatlanish erkinligini oshirish va soliqlarda sezilarli darajada o‘zgartirishlar kiritildi ayniqsa yosh tadbirkorlarga ko‘proq imkoniyatlar yaratish ishlar boshlab yuborilgan. Shu ma’noda, biznesmenlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan maxsus institut — Biznes Ombudsman instituti shakllantirilgan.

Biznes Ombudsman instituti O‘zbekiston Respublikasida 2017-yilda Prezidentning tegishli farmoni bilan tashkil etilgan. Ushbu institutning tashkil etilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad - tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, davlat idoralari bilan o‘zaro hamkorlikni yaxshilash hamda biznes muhitini qo‘llab-quvvatlashdan iborat. 2017-yil “Biznes Ombudsman to‘g‘risidagi” qonun qabul qilingan. Qonunga ko‘ra Biznes Ombudsman mansabdor shaxs bo‘lib, qonunning 3-moddasiga qarasa u tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini, mazkur huquqlar va qonuniy manfaatlarga davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar tomonidan rioya etilishini ta’minlaydi [1.3-modda]. Biznes Ombudsman davlat va xususiy sektor o‘rtasida vositachilik qilib, tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan noqonuniy harakatlarning oldini olish va ularni hal etishda yordam beruvchi mustaqil organ hisoblanadi.

Ombudsmanning asosiy vazifalarni quyidagilar hisoblanadi: Tadbirkorlarning murojaatlarini ko‘rib chiqish: Biznes subyektlari duch kelayotgan

muammolar yuzasidan shikoyat va murojaatlarni qabul qilish va ularni tahlil qilish orqali tegishli choralar ko‘rish.

Huquqbuzarliklarning oldini olish: Davlat idoralari yoki boshqa tashkilotlar tomonidan tadbirkorlarga nisbatan noqonuniy harakatlar sodir etilishining oldini olish.

Biznes muhitni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar berish: Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va biznes muhitini yaxshilash maqsadida qonunchilikka takliflar kiritish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Biznes Ombudsman bu vazifalarni amalga oshirishda bevosita xalq bilan ishlaydi va xalqqa ular bilan bog‘lanishini osonlashtirish maqsadida “biznesombudsman.uz” sayti va “1100” qisqa raqamini ishga tushirishgan. Sayti orqali biz ushbu organ bilan tez bog‘lana olishimiz, organ olib borayotgan faoliyat haqida ma‘lumotlar va dayjestlarni olishimiz mumkin, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasidagi aynan Biznes Ombudsman bo‘yicha statistikalarini ko‘rib borishimiz mumkin, bu esa ularning faoliyatini shaffof kuzatib borishimiz va oson, tez, qulay bog‘lana olishimiz mumkin. Tadbirkorlarning vakiliga berilgan vakolatlarga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak.

Biznes Ombudsman qonunga binoan unga berilgan huquq va vakolatlarga quyidagilar hisoblanadi :

Davlat idoralaridan ma‘lumot olish.

Tadbirkorlarning murojaatlarini ko‘rib chiqish jarayonida tegishli davlat organlaridan zarur hujjatlar va ma‘lumotlarni so‘rash.

Nazorat qilish: Tadbirkorlarning faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ko‘rish.

Tavsiya berish: Davlat organlari va boshqa tashkilotlarga tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilishga doir tavsiyalar berish.

Sudlarga murojaat qilish: Tadbirkorlarning qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda sud idoralariga murojaat qilish huquqiga ega [2.8-modda]

O‘zbekiston Respublikasida Ombudsmanning hozirda 3 ta turi mavjud.

Birinchi navbatda, Inson huquqlari bo‘yicha Ombudsman: Asosiy vazifasi fuqarolarning umumiy huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir. Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha ombudsmanning to‘liq vakolatlari ushbu qonunda keltirilgan [3. 2024]

Bolalar Ombudsmani: Bolalar huquqlarini himoya qilish bilan shug‘ullanadi. Oliy Majlisning Inson Huquqlari bo‘yicha vakili Bolalar Ombudsmani [4.2020].

Biznes Ombudsman: Xususiy tadbirkorlik subyektlari huquqlarini himoya qilishga ixtisoslashgan.[2.2017]

Ushbu ombudsmanlarning o‘zaro farqi shundaki, har bir institut muayyan soha yoki guruh manfaatlarini himoya qiladi. Ayniqsa, Biznes Ombudsman iqtisodiy faoliyat subyektlarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

2025-yil Statistikasiga qarasaq Biznes Ombudsmanga 6843 ta arizalar kelib tushgan va ularning 6173 ta murojaat ko‘rib chiqilganligini va 333 ta murojaat bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligini ko‘rishimiz mumkin va bu ancha yaxshi natija deyishimiz mumkin[5].

Xorijiy tajribani o‘rganish va foydali jihatlarini milliy qonunchiligimizga bazi yangiliklarni olish ham o‘rinli shuning uchun bazi davlatlar haqida pastda fikr bildiramiz.

Polsha tajribasi: Polshada Biznes Ombudsman instituti 2018-yilda tashkil etilgan. U nafaqat tadbirkorlarning murojaatlarini ko‘rib chiqadi, balki kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qonuniy tashabbuslar ham ishlab chiqadi. Polsha tajribasi shuni ko‘rsatadiki, institut faoliyati natijasida byurokratik to‘siqlar sezilarli darajada kamaygan[6].

Gruziya tajribasi: Gruziyada Biznes Ombudsman instituti 2011-yilda tashkil etilgan. Uning asosiy vazifasi tadbirkorlarning davlat idoralari bilan bo‘lgan munosabatlarida paydo bo‘ladigan muammolarni hal etishdir. Xususan, Gruziyada ushbu institut tadbirkorlar uchun huquqiy maslahat berish va ularni noqonuniy harakatlardan himoya qilish bo‘yicha keng vakolatlarga ega[7].

Buyuk Britaniya tajribasi: Buyuk Britaniyada Ombudsman instituti kichik va o‘rta biznes subyektlari duch keladigan muammolarni hal qilishda vositachilik qiladi. Bu yerda biznesmenlar duch keladigan moliyaviy muammolar va shartnoma shartlarini bajarish bilan bog‘liq nizolarni hal etishda ombudsman muhim rol o‘ynaydi[8].

Xorijiy tajribalarni o‘rganishimiz shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab davlatlarda Biznes Ombudsman institutining samarali faoliyati tufayli biznes muhit sezilarli darajada yaxshilangan.

Biznes Ombudsmanning biznes muhitni yaxshilashdagi roli

Biznes Ombudsman tadbirkorlar va davlat organlari o‘rtasida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish orqali biznes muhitni yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, u:

- 1) Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlarini takomillashtirishga ko‘maklashadi.
- 2) Halol raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

3) Inson omilini kamaytirish orqali korrupsiyaning oldini olishga yordam beradi.

4) Biznes subyektlari uchun byurokratik to'siqlarni bartaraf etish tashabbusini ilgari suradi.

XULOSA

Biznesmenlar huquqlarini himoya qilishda Biznes Ombudsman instituti muhim rol o'ynaydi. U tadbirkorlik subyektlarini noqonuniy harakatlardan himoya qilish, biznes muhitini yaxshilash hamda davlat va xususiy sektor o'rtasida ishonchli hamkorlikni ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Shu boisdan, ushbu institutning vakolatlarini kengaytirish va uning samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi hamda Bizning yurtimizda tadbirkorlarga yaratilayotgan imkoniyatlarni va ularning huquqlari qanchalik himoya qilinayotganligining yaxshi misoli bo'la o'lyabdi deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN QONUNCHILIK:

1. <http://lex.uz/docs/-3321352> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil to'g'risida qonun
2. <https://lex.uz/docs/-3321352> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil to'g'risida
3. <https://lex.uz/acts/-276159> Oliy Majlisning Inson Huquqlari Bo'yicha Vakili (Ombudsman) To'g'risida qonun
4. <http://lex.uz/docs/-6823379> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risida

Foydalanilgan Saytlar:

- 5) <https://biznesombudsman.uz/uz> Biznes Ombudsmanning Rasmiy sayt
- 6) <https://rzecznikmsp.gov.pl> Polsha ma'lumotlar sayti
- 7) <https://businessombudsman.ge/> Gretsiya ma'lumotlar sayti
- 8) <https://www.financial-ombudsman.org.uk/> Buyuk Britaniya ma'lumotlar sayti